



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025  
1-сон



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Наргиза Музафаровна Бабаева</b> Жаҳон лизинг хизматлари бозорининг ҳолати таҳлили ва ўзбекистонда унинг ривожланиш тенденциялари.	70
<b>Рамз Зоиржон ўғли Мухаммадиев</b> Тиббий хизмат сифатини яхшилашда юқори технологиялар ўрни.	77
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Гульнара Мардиевна Шадиева, Бону Бахтиёрвна Давронова</b> Туризм в Узбекистане: драйвер экономического роста и социальной стабильности	80
<b>Maksuda Valeriyevna Israilova</b> Sog'lomlashtirish turizmning mohiyati va rivojlanish tarixi.	84
<b>Dilshod Usmanovich Ruzmanov</b> Turizm da madaniy-tarixiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish	90
<b>Nargiza Akbardjonovna Abduvaxidova</b> Barqaror turizm rivojlanishida muammo va imkoniyatlar	94
<b>Фарход Абдихидович Бекназаров, Азиза Пирмаматовна Махмудова</b> Мамлакатимиз экотизими ва маданий меросини комплекс сақлаш ҳамда минтақада экотуризмни ривожлантиришда геопапркларнинг ўрни	99
<b>Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova</b> Iqtisodiyotni raqamlashtirishda turizm va mehmonxona xizmatlarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	103
<b>Камилла Бахромовна Суюнова, Олтинбек Бобирович Умаров</b> Роль маркетинговых стратегий в развитии цифровизации сферы туризма в Узбекистане	108
<b>Rayhona Sadriddinovna Amriddinova, Sitara Otabekovna Xamroyeva</b> Jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlar turizmini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	111
<b>Parvina Asliddin qizi Xolmatova</b> Hududlarda ekoturizmni tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	114
<b>Xasan Ibragimovich Turdibekov</b> O'zbekiston sharoitida overturizmni baholash uslubiyatini takomillashtirish	118
<b>Aziza Yusufbekovna Talibova</b> O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida ekskursiya xizmatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari	122
<b>Нодир Нозимович Негматов</b> Роль визуальных и культурных стимулов Узбекистана в формировании лояльности туристов: нейромаркетинговый подход.	127
<b>Nodirjon Abdusalil o'g'li Xoliqov, Ibragim Xudayarovich Nimatov</b> O'zbekiston Respublikasi turistik salohiyati: tahlillar va istiqbollar	132
<b>Азиза Пирмаматовна Махмудова, Ситора Отабековна Ҳамраева</b> Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда Big Data технологияларидан фойдаланиш йўллари	138
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Nigina Marupovna Usmanova, Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova</b> Qarorlar qabul qilish jarayonini tahlil qilish va korxonada boshqaruvni takomillashtirish yo'llari	140
<b>Gulshan Akmalovna Abduvohidova</b> Tashkilot intellektual resurslarini boshqarish tamoyillari	145

Dilshod Usmanovich Ruzmanov – Shahrizabz davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

## TURIZMDA MADANIY-TARIXIY RESURLAR SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turizm madaniy-tarixiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanishga takomillashtirishga taʼsir qiluvchi omillar tadqiq qilingan. Turizm va rekreatsion salohiyatni shakllantiruvchi omillarning mintaqaviy ahamiyatga ega koʻrsatkichlari aniqlangan va shu asosda hududlarning turistik salohiyatini baholash uslubiyati taklif qilingan.

**Kalit soʻzlar:** turistik resurslar, madaniy-tarixiy resurslar, turistik salohiyat, baholash indikatorlari, toʻyinganlik indeksi.

**Kirish.** Turizm sohasining muvaffaqiyatli rivojlanishi, avvalo, turistik resurslarning toʻgʻri aniqlanishi va baholanishiga bogʻliq. Turistik resurslar sayyohlar eʼtiborini jalb etadigan va turizm xizmatlarini tashkil etish uchun xizmat qiladigan tabiiy, madaniy, tarixiy, ijtimoiy hamda boshqa imkoniyatlar majmuasini anglatadi. Ularni xalqaro tasnif va mezonlar boʻyicha baholash turizmni strategik rejalashtirish hamda samarali boshqarish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribada turistik resurslar tabiiy, madaniy-va-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik-rekreatsion va axborot-taʼlim kabi asosiy toifalarga ajratiladi. Ularni baholashda Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) koʻrsatmalari, Turizm boʻyicha hisob-kitoblarning (TSA) xalqaro standartlari va Global Sustainable Tourism Council (GSTC) mezonlaridan foydalaniladi. Shu tariqa, sayyohlar soni va transport infratuzilmasi kabi aniq miqdoriy koʻrsatkichlar bilan birga xizmat sifati, ekologik holat, xavfsizlik darajasi, madaniy merosni asrashga doir chora-tadbirlar kabi sifat koʻrsatkichlari ham inobatga olinadi. Baholash jarayonida turizmning atrof-muhitga salbiy taʼsirini minimallashtirish, mahalliy jamoalar manfaatini hisobga olish, barqaror rivojlanishni taʼminlash masalalari alohida eʼtibor talab qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jahon turizm tashkiloti taʼrifiga koʻra, turizm salohiyatini puxta va har tomonlama baholamasdan turib, ushbu sohada maqsadli dasturlar ishlab chiqish, mavjud turistik resurslardan unumli foydalanish, ularni muhofaza qilish va yanada ravnaq toptirish qiyin. Shu bilan birga, turizmni rivojlantirish uchun sarmoyadorlarni jalb qilish jarayonida ham resurs salohiyatini toʻliq hisobga olmaslik ayrim muammolarni keltirib chiqaradi [1]. Shu bois turizm salohiyatini baholash va mintaqaning imkoniyatlariga mos turmahsulotni shakllantirish ustuvor vazifalardan biridir. Maʼlumki, har bir hududda global, milliy, mintaqaviy kabi turli miqyosda baholanishi mumkin boʻlgan turistik va rekreatsion imkoniyatlar mavjud. C.Hall va S.Page yondashuviga koʻra, turistik-rekreatsion salohiyatni “turistlar sonining haqiqiy koʻrsatkichini ularning eng koʻp boʻlishi mumkin boʻlgan darajasi bilan chegaralash” sifatida tushunishadi [3]. Biroq, bizning fikrimizcha, bu taʼrif mazkur tushunchaning mohiyatini toʻliq ochib bermaydi. Hozirgi kunda turizm rivojiga taʼsir etuvchi asosiy omillar ikki guruhga boʻlinadi: tashqi (ekzogen) va ichki (endogen). Ekzogen omillar turizm taraqqiyoti bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliq boʻlmasdan, turistik faoliyat koʻlamiga bilvosita taʼsir koʻrsatadi [4]. Ularga tabiiy-geografik, madaniy-tarixiy, demografik, ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, siyosiy-huquqiy hamda ekologik omillar kiradi. Tabiiy, geografik va madaniy-tarixiy omillar sayyohlarni jalb etishda alohida ahamiyatga ega boʻlib, mazkur resurslarga boy mamlakatlar va mintaqalar raqobatda katta ustunlikni qoʻlga kiritadi. Shu bilan birga, mualliflar guruhi izohiga asosan tabiiy, rekreatsion va madaniy-tarixiy resurslarning turli darajadagi mavjudligi hududlarning mintaqaviy tabaqalanishiga sabab boʻladi va turizm mahsulotini shakllantirish imkoniyatini yaratadi [5]. Ijtimoiy omil turistik xizmatlar isteʼmolchilariga taqdim etiladigan imkoniyatlar (ijtimoiy imtiyozlar va boshqalar)da namoyon boʻladi. Atrof-muhit va ekologiya omili esa turizm faoliyatini bevosita shakllantiruvchi tabiiy resurslar bilan chambarchas bogʻliq.

R.Sharpley va D.Telferlarning fikricha, oddiy holda resurslar bilan taʼminlanganlik darajasi turistik (madaniy-tarixiy) va rekreatsion (tabiiy-rekreatsion) resurslarning tarkibi hamda ular ixtisoslashuvi asosida baholanadi [2]. C.Cooperga koʻra, atrof-muhit omillarining taʼsiri hududiy

ekotizimlarga antropogen bosim miqyosi va ushbu ekotizimlarning unga bardosh berish qobiliyati bilan belgilanadi [4]. Ma'muriy-hududiy birliklar darajasida С.Hall turistik va rekreatsion resurslar jozibadorligini aniqlash uchun ekspertlar fikriga suyangan holda ballar modelini qo'llashni taklif etadi [3]. Turizm omillarini tahlil etishda aniq va integratsiyalashgan ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, bu usul baholash jarayonida sub'ektivlik darajasini qisqartiradi. Ya'ni, bir vaqtning o'zida ko'rsatkichning birlikdagi qiymatini ham, uning umumiy ko'rsatkichdagi salmog'ini ham e'tiborga olish kerak.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Turizm madaniy-tarixiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish jarayonida salohiyatga ta'sir qiluvchi omillar va ularning qiymatga ta'sir darajasi tadqiq qilinganda induksiya va deduksiya, analiz va sintez, mantiqiy yondashuv, guruhlash, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Mintaqaviy turizm majmuasining iste'molchi omilini o'rganishda so'rov, kuzatish, tajriba va modellashtirish kabi uslublar asosida olib boriladigan marketing tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm va rekreatsion salohiyatni shakllantiruvchi omillarning mintaqaviy ahamiyatga ega ko'rsatkichlarini E.N. Karchevskaya [6] tomonidan taklif qilingan maxsus formulalar yordamida hisoblash mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Madaniy-tarixiy resurslar bilan to'yinganlik indeksi quyidagi formula (1) asosida hisoblanadi:

$$I_{\text{mad.-tarix.}} = \sum_{i=1}^n K_n^{ij} \cdot v_j \quad (1)$$

Bu yerda  $I_{\text{mad.-tarix.}}$  – i-ma'muriy tumanning madaniy-tarixiy boyliklar bilan to'yinganlik ko'rsatkichi,

$K_n^{ij}$  j-turdagi madaniy-tarixiy resurslar i-ma'muriy tumanning bilan ta'minlanganlik koeffitsienti,

$v_j$  – indikatorning solishtirma og'irlik koeffitsienti.

Ma'muriy tumanlarning madaniy-tarixiy resurslar bilan to'yinganlik koeffitsientlari (2) va (3) formulalar orqali aniqlanadi:

$$K_1^{ij} = \frac{\sum_{i=1}^n w_n^{ij}}{Q_i} \quad (2)$$

va

$$K_2^{ij} = \frac{\sum_{i=1}^n w_n^{ij}}{Q_j} \quad (3)$$

Bu yerda  $K_1^{ij}$  va  $K_2^{ij}$  – i-ma'muriy hududning j-turdagi madaniy-tarixiy resurslar bilan ta'minlanganlik koeffitsientlari,  $\sum_{i=1}^n w_n^{ij}$  – i-ma'muriy hududdagi j-turdagi obidalar (obyektlar) soni,

$Q_i$  – shu hududdagi barcha madaniy-tarixiy resurslari soni,

$Q_j$  – hududda mavjud turizm katalogiga kiritilgan j-turdagi turizmga mansub madaniy-tarixiy resurslar miqdori.

Ma'muriy hududlarning tabiiy va rekreatsion obyektlar bilan to'yinganlik ko'rsatkichi  $I_{\text{tab.-rekrat.}}$  (4) formula asosida hisoblanadi:

$$I_{\text{tab.-rekrat.}} = \sum_{i=1}^n \frac{w_i}{Q} \cdot v_j \quad (4)$$

$I_{tab.-rekrat.}$  – ma’muriy hududning tabiiy va rekreatsion resurslarga to‘yinganligini ifodalovchi ko‘rsatkich,

$w_i$  – ma’muriy hudud ko‘rsatkichining qiymati,

$v_j$  – ko‘rsatkichning solishtirma og‘irlik koeffitsienti,

$Q$  – viloyat ko‘rsatkichi qiymati.

Turistik va rekreatsion faoliyat jarayonida eng ko‘p jalb etiladigan obyektlar – tabiat va madaniyat yodgorliklaridir. Yuqoridagi ta’riflar asosida madaniy yodgorliklar shartli ravishda besh guruhga ajratiladi: arxeologik obidalar; tarixiy obidalar; arxitektura yodgorliklari; san’at yodgorliklari; madaniy meros yodgorliklari. Mintaqada turizmni rivojlantirishda, ayniqsa, turistik va rekreatsion resurslarning ma’lum bir turlari bilan to‘yinganlik darajasini aniq ko‘rsatib beradigan baholash usulidan foydalanish muhimdir. Quyida Samarqand viloyati ma’muriy birliklarining madaniy-tarixiy resurslar bilan to‘yinganligini baholash natijalari keltiriladi. Bunda viloyatdagi jozibali tabiiy va tarixiy-madaniy obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlardan foydalanilgan. E.N. Karchevskaya [6] tomonidan taklif qilingan (1), (2) va (3)-formulalar yordamida viloyat ma’muriy birliklarining madaniy-tarixiy resurslar bilan to‘yinganlik ko‘rsatkichlari hisoblandi (1-Jadval).

1-jadval.

O‘zbekiston hududlari bo‘yicha madaniy-tarixiy va tabiiy-rekreatsion indekslar qiymati

№	Hudud	$Q_i^1$ (arxeol)	$Q_i^2$ (UNESCO)	$Q_i^3$ (muzey)	$Q_i^4$ (diniy)	$I_i$ (madaniy indeks)	Tog‘ maydoni ( $x_i^1$ , ming ga)	Kurort ( $x_i^2$ , soni)	$T_i$ (tabiiy indeks)	$R_i$ (umumiy salohiyat)
1	Toshkent shahri	20	0	30	60	0,0790	0	15	0,0600	0,1390
2	Toshkent vil.	30	0	10	40	0,0518	60	10	0,1120	0,1638
3	Samarqand vil.	80	3	20	70	0,2047	40	20	0,1280	0,3327
4	Buxoro vil.	50	1	15	90	0,1235	10	12	0,0600	0,1835
5	Xorazm vil.	40	1	10	70	0,1013	0	8	0,0320	0,1333
6	Farg‘ona vil.	30	0	8	40	0,0492	80	8	0,1280	0,1772
7	Qoraqalpog‘iston R.	100	1	7	30	0,1263	100	5	0,1400	0,2663
8	Andijon vil.	5	0	8	10	0,0185	40	4	0,0640	0,0825
9	Namangan vil.	4	0	5	8	0,0129	30	3	0,0480	0,0609
10	Surxondaryo vil.	10	1	10	25	0,0608	50	5	0,0800	0,1408
11	Qashqadaryo vil.	15	1	12	30	0,0693	40	4	0,0640	0,1333
12	Jizzax vil.	6	0	5	10	0,0152	30	2	0,0440	0,0592
13	Sirdaryo vil.	3	0	4	5	0,0096	10	2	0,0200	0,0296
14	Navoiy vil.	7	2	6	12	0,0781	10	2	0,0200	0,0981

Bu yerda:

$Q_i^1$  (arxeol) – i-hududdagi arxeologik yodgorliklar soni (jami 400 ta).

$Q_i^2$  (UNESCO) – i-hududdagi YuNESKO merosi obyektlari soni (jami 10 ta).

$Q_i^3$  (muzey) – i-hududdagi muzeylar soni (jami 150 ta).

$Q_i^4$  (diniy) – i-hududdagi diniy-tarixiy obidalar soni (jami 500 ta).

$I_i$  – madaniy indeks. (1-formuladan kelib chiqib (2) va (3) usullar birikmasi). Hisoblanishi:

$$I_i = \sum_{j=1}^4 \left( \frac{Q_i^j}{Q^j} \times v_j \right),$$

bu yerda  $v_1 = 0.30$  (arxeo),  $v_2 = 0.30$  (UNESCO),  $v_3 = 0,20$  (muzey),  $v_4 = 0,20$  (diniy).

- Tog‘ maydoni ( $x_i^1$ ) – i-hududdagi tog‘ hududlari maydoni (ming ga), jami 500 ming ga deb olingan.
- Kurort ( $x_i^2$ ) – i-hududdagi kurort/ sog‘lomlashtirish maskanlari soni (jami 100 ta).
- $T_i$  – tabiiy indeks (4-formula):

$$T_i = \left( \frac{x_i^1}{500} \times 0,60 \right) + \left( \frac{x_i^2}{100} \times 0,40 \right).$$

- $R_i$  – umumiy salohiyat:

$$R_i = I_i + T_i.$$

Shunday qilib, mazkur 1-jadval madaniy-tarixiy va tabiiy-rekreatsion resurslar bilan to‘yinganlikni kompleks baholash uslubini ko‘rsatib beradi. Har bir hududning indeklari aniqlanganidan so‘ng, turizm salohiyatini aniqlash, baholash va ustuvor loyihalarni tanlashda muhim asos sifatida foydalanish mumkin.

**Xulosa va takliflar.** O‘zbekistonda turizm resurslarini baholash va samarali foydalanishga qaratilgan quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Raqamli inventarizatsiya tizimini keng qamrovli shaklda joriy etish. Turizm obyektlari haqida bitta markazlashgan, raqamli va multimediy ma’lumotlar bazasi yaratish muhim. Bu tizim orqali har bir viloyat va tumanning madaniy-tarixiy, tabiiy, gastronomik va rekreatsion obyektlari, ularning aniq joylashuvi, holati, tarixi va infratuzilma jihati haqida muntazam yangilanuvchi ma’lumotlar yig‘iladi. Geoinformatsion tizimlar (GIS) bilan integratsiya qilingan virtual karta yaratish, obyektlarning foto, video va 3D modellarini jamlash, shuningdek, ekspertlar baholari va foydalanuvchi sharhlarini ham kiritish mumkin.

2. Ko‘p o‘lchovli baholash modellari va indekslardan samarali foydalanish. Turizm resurslarining salohiyatini baholash uchun bir nechta ko‘rsatkichlar asosida integratsiyalashgan modellar va indekslar ishlab chiqish zarur. Jumladan, madaniy-tarixiy va tabiiy-rekreatsion indekslar (masalan,  $I_i$  va  $T_i$ ) asosida hududlar reytingini tuzish, ularni solishtirish va tahlil qilish, har bir turizm obyektining ahamiyatini, infratuzilma sifatini, ekologik va madaniy ahamiyatni bir necha ko‘rsatkichlar va solishtirma koeffitsientlar orqali baholash, ishlab chiqilgan indekslar asosida kelajakdagi investitsiyalar, restavratsiya, marketing va infratuzilma rivojlanish rejalarini tuzish uchun eksperimental pilot loyihalar tashkil etish va ular natijalarini tahlil qilish imkoniyati vujudga keladi.

3. Infratuzilma va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash. Turizm sohasining rivojlanishi uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlarning sifatini oshirish zarur. Jumladan, transport, mehmonxona, rekreatsion obyektlar, qo‘rg‘onlar va ko‘ngilochar infratuzilmalarni zamonaviy talablarga mos ravishda qayta tiklash va modernizatsiya qilish, turoperatorlar, gidlar, ekskursovodlar va boshqa xizmat ko‘rsatuvchilar uchun bitta sifat standartlari, sertifikatlash tizimi va ta’lim dasturlarini ishlab chiqish mumkin bo‘ladi.

4. Barqaror turizm va ekologik monitoringni ta’minlash. Turizmning atrof-muhitga ta’sirini minimallashtirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadida turizm obyektlaridan foydalanish jarayonida ekologik normalar, me’yorlar va qoidalarni ishlab chiqish va qo‘llash, ekologik monitoring tizimlarini joriy etish orqali turizm obyektlarining atrof-muhitga ta’sirini doimiy kuzatish, energiya va suv resurslaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish, yangi pilot loyihalar, eksperimental zonalar va yashil turizm modellarini yaratish, shu orqali ekologik barqarorlik va milliy turizm salohiyatini oshirish kerak.

Ushbu kengaytirilgan takliflar O‘zbekiston turizm salohiyatini oshirish, madaniy merosni saqlash va barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadida mo‘ljallangan. Ular raqamli inventarizatsiya va ko‘p o‘lchovli baholash, infratuzilma va xizmatlarning sifatini yaxshilash,

ekologik monitoring va investitsiyalarni jalb etish kabi sohalarni o‘z ichiga oladi. Amalda ushbu takliflarni tatbiq etish orqali mamlakatning turizm salohiyatini oshirish, iqtisodiy o‘sishga ta’sir ko‘rsatish va mahalliy aholi farovonligini yaxshilash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. World Tourism Organization (2019). Tourism and the Sustainable Development Goals – Journey to 2030. Madrid: UNWTO.
2. Sharpley, R. & Telfer, D. (2015). Tourism and Development: Concepts and Issues. Bristol: Channel View Publications.
3. Hall, C. M. & Page, S. (2014). The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space. London: Routledge.
4. Cooper, C., Fletcher, J., Fyall, A., Gilbert, D., & Wanhill, S. (2008). Tourism: Principles and Practice. Harlow: Pearson Education.
5. Middleton, V. T. & Clarke, J. (2012). Marketing in Travel and Tourism (4th ed.). London: Routledge.
6. Карчевская Е.Н. Методическое обеспечение регионального развития и пространственной дифференциации туризма (на примере Гомельской области): Автореферат диссертации на соискание уч. ст. канд. геогр. наук. - Калининград, 2018. - 22 с.

<p><b>Д.Рузманов</b></p> <p><b>Совершенствование методов эффективного использования культурно-исторических ресурсов в туризме</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В статье рассматриваются факторы, влияющие на эффективное использование потенциала культурно-исторических ресурсов в туризме. Выявлены регионально значимые показатели факторов формирования туристско-рекреационного потенциала и на этой основе предложена методика оценки туристского потенциала регионов.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> туристские ресурсы, культурно-исторические ресурсы, туристский потенциал, показатели оценки ресурсов.</p>	<p><b>D.Ruzmanov</b></p> <p><b>Improving the methods of effective use of cultural and historical resources in tourism</b></p> <p><b>Abstract.</b> The article examines the factors influencing the effective use of the potential of cultural and historical resources in tourism. Regionally significant indicators of factors in the formation of tourism and recreational potential are identified and, on this basis, a methodology for assessing the tourism potential of regions is proposed.</p> <p><b>Keywords:</b> tourism resources, cultural and historical resources, tourism potential, resource assessment indicators.</p>
--	--

**Nargiza Akbardjonovna Abduvaxidova** – “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**BARQAROR TURIZM RIVOJLANISHIDA MUAMMO VA IMKONIYATLAR**

**Annotatsiya.** Maqolada barqaror turizm tizimini rivojlantirishdagi duch kelinayotgan ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy muamollar tahlil qilinib, o‘rganilgan muammolar yechimini topishdagi istiqbolli rejalar haqida yozilgan. Turizm sohasi keltirib chiqaradigan muammolar, ekologik zarar, madaniy merosning yo‘qolishi, barqaror turizmning nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy madaniy jihatlarni ham o‘z ichiga olib, hozirgi davrda asta-sekin, bizning kundalik hayotimizga kirib borayotgani, tabiiy resurslarni tejash va oqilona iste‘mol qilish, barqaror rivojlanishda resurslarni kam sarflab, energiya tejaydigan yondashuvdan foydalanishni rivojlantirish haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologik zarar, madaniy merosning yo‘qolishi, turizmdagi ekologik va ijtimoiy madaniy jihatlarni tejash, resurslarni kam sarflash, energiya tejaydigan yondashuv.

**Kirish.** Turizm dunyodagi eng muhim va eng tez rivojlanayotgan sohalardan biriga aylanmoqda. Lekin bu rivojlanish, ayniqsa barqarorlik masalalari haqida gap ketganda, o‘zi bilan ko‘plab muammolarni olib kelmoqda. Ushbu maqolada turizmning barqaror rivojlanishi bilan

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.